



GEOPOLITICAL SIGNIFICANCE OF ENERGY RESOURCES AND TRANSPORTATION ROUTES IN THE GEO-ENERGY SPACE OF THE NEAR EAST

Sanjarbek Shukhratovich Abdinabiyev

University of World Economy and Diplomacy

Master's student in International Relations and Contemporary Political Processes

Email: sanjarbekabdinabiyev@icloud.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Middle East, energy, resources, natural gas, oil, transport corridors, global energy.

Abstract: This scientific article analyzes the geopolitical significance of energy resources and transport corridors in the geo-energy space of the Middle East. The study examines the reserves of energy resources, such as natural gas and oil, in the countries of the region, their territorial distribution, and their role in the global energy market. In addition, the importance of strategic transport corridors, including seas, maritime straits, and pipeline systems, which play a crucial role in supplying energy resources to world markets, is explored. The article also analyzes the impact of control over energy resources and the security of transport routes on regional and global geopolitical processes. The results of the study help to highlight the strategic role of the Middle East in global energy security and international political relations.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

YAQIN SHARQ GEOENERGETIK MAKONIDA ENERGIYA RESURSLARI VA TRANSPORT YO'LAKLARINING GEOSIYOSIY AHAMIYATI

Sanjarbek Shuxratovich Abdinabiyev

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar yonalishi magistranti

Email: sanjarbekabdinabiyev@icloud.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Yaqin Sharq, energiya, resurslar, tabiiy gaz, neft, transport yoʻlaklari, global energetika.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Yaqin Sharq geoenergetik makonida energiya resurslari va transport yoʻlaklarining geosiyosiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqa mamlakatlarining tabiiy gaz va neft kabi energiya resurslarining zaxiralari, ularning hududiy taqsimlanishi hamda global energetika bozorida oʻrni koʻrib chiqiladi. Shuningdek, energiya resurslarini jahon bozorlariga yetkazib berishda muhim rol oʻynaydigan strategik transport yoʻlaklari, jumladan dengizlar, dengiz boʻgʻozlari va quvurlar tizimining ahamiyati oʻrganiladi. Maqolada energiya resurslari ustidan nazorat va transport yoʻlaklari xavfsizligining mintaqaviy hamda global geosiyosiy jarayonlarga taʼsiri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Yaqin Sharq mintaqasining global energetika xavfsizligi va xalqaro siyosiy munosabatlardagi strategik ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

ГЕОПОЛИТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ И ТРАНСПОРТНЫХ МАРШРУТОВ В ГЕОЭНЕРГЕТИЧЕСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ БЛИЖНЕГО ВОСТОКА

Санжарбек Шухратович Абдинабиев

Университет мировой экономики и дипломатии

Магистрант направления

«Международные отношения и современные политические процессы»

Email: sanjarbekabdinabiyev@icloud.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ближний Восток, энергия, ресурсы, природный газ, нефть, транспортные коридоры, глобальная энергетика.

Аннотация: В данной научной статье анализируется геополитическое значение энергетических ресурсов и транспортных коридоров в геоэнергетическом пространстве Ближнего Востока. В исследовании рассматриваются запасы энергетических ресурсов стран региона, таких как природный газ и нефть, их территориальное распределение, а также их роль на мировом энергетическом рынке. Кроме того, изучается значение стратегических транспортных коридоров, играющих важную роль в поставках энергоресурсов на мировые рынки,

включая морские пути, морские проливы и системы трубопроводов. В статье также анализируется влияние контроля над энергетическими ресурсами и безопасности транспортных маршрутов на региональные и глобальные геополитические процессы. Результаты исследования позволяют раскрыть стратегическую роль региона Ближнего Востока в обеспечении глобальной энергетической безопасности и в системе международных политических отношений.

Kirish. Yaqin Sharq mintaqasi ulkan neft va tabiiy gaz zaxiralari hamda strategik geografik joylashuvi tufayli global energetika tizimida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu mintaqa dunyodagi tasdiqlangan uglevodorod resurslarining katta qismiga ega bo‘lib, Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerika kabi yirik bozorlarni energiya bilan ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Yaqin Sharq xalqaro munosabatlarda energiya resurslari va transport yo‘laklari orqali mintaqaviy va global geosiyosiy jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy geoenergetik makonlardan biri hisoblanadi.

Energiya resurslari nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki xalqaro munosabatlarda davlatlar siyosati va global kuchlar muvozanatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim geosiyosiy vosita sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Katta neft va gaz zaxiralari ega davlatlar ko‘pincha xalqaro maydonda strategik ustunlikka ega bo‘ladi, energiya importiga qaram mamlakatlar esa barqaror va xavfsiz ta‘minot yo‘llarini izlashga intiladi. Shu nuqtai nazardan, energiya resurslari va ularni tashish yo‘laklari ustidan nazorat Yaqin Sharqdagi ittifoqlar va geosiyosiy strategiyalarni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mintaqaning geoenergetik ahamiyatini belgilab beruvchi yana bir muhim omil, energiya resurslarining global bozorga uzluksiz yetkazilishi uchun strategik ahamiyatga ega transport yo‘laklarining mavjudligidir.

Hormuz bo‘g‘ozi, Suvaysh kanali va Bob al-Mandab bo‘g‘ozi kabi strategik dengiz yo‘llari mintaqadan jahon bozorlariga neft va suyultirilgan tabiiy gaz yetkazib berishda muhim bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi. Shu sababli ushbu yo‘laklarning barqarorligi va xavfsizligi global ahamiyatga ega bo‘lib, ularning izdan chiqishi xalqaro energiya bozorlariga va jahon iqtisodiy barqarorligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Biroq, hozirgi kunda Yaqin Sharq mintaqasida yuzaga kelayotgan yuqori darajadagi mojarolar Hormuz bo‘g‘ozining holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu esa global kuch markazlarining Yaqin Sharqdagi neft shaklidagi mineral energiya manbalariga

bo'lgan katta manfaatlari sababli, global energiya ehtiyojlarini turli mamlakatlarga yetkazishda uzilishlar yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Umuman olganda, ushbu dengiz transport yo'laklaridagi kichik bir eskalatsiya ham xalqaro energiya bozorida sezilarli iqtisodiy inqirozlarga olib kelishi mumkin. Mintaqa davlatlarining ayrimlarida energiya quvurlari mavjud bo'lsa-da, ular faqat cheklangan miqdordagi ehtiyojni yetkazib berishi mumkin, va ushbu yetishmovchilikni to'liq qoplash bugungi kunda deyarli imkonsiz.

Shu nuqtayi nazardan, Yaqin Sharq energiya resurslari, transport infratuzilmasi va geosiyosiy manfaatlar o'zaro kesishadigan murakkab geoenergetik nuqta hisoblanadi. Ushbu resurslar ustidan nazorat uchun raqobatda nafaqat mintaqa mamlakatlari, balki geosiyosiy, iqtisodiy hamda strategik manfaatlarga ega bo'lgan yirik kuch markazlari ham ishtirok etadi. Shuning uchun Yaqin Sharqdagi energiya resurslari va traanzit yo'laklarini o'rganish zamonaviy geosiyosiy jarayonlar hamda global energetik xavfsizlikni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Yaqin Sharq geoenergetik makonida energiya resurslari va transport yo'laklarining geosiyosiy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda asosiy energiya resurslarining hududiy taqsimlanishi, energiya transport yo'laklarining strategik ahamiyati hamda ularning mintaqaviy va global geosiyosiy jarayonlarga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Metodologiya. Tadqiqotda qiyosiy-geosiyosiy yondashuv, hujjatlarni o'rganish, tizimli tahlil, statistik tahlil va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manba bazasini xalqaro tashkilotlar hisobotlari, mintaqaviy siyosiy jarayonlarga oid ilmiy maqolalar, geoenergetika va geosiyosat sohasidagi nazariy tadqiqotlar natijalari hamda energiya resurslari va transport infratuzilmasiga oid statistik ma'lumotlar tashkil etdi. Shuningdek, Yaqin Sharq mintaqasidagi energiya siyosati, neft va gaz zaxiralari, eksport yo'nalishlari hamda transport yo'laklari faoliyatiga oid tahliliy hisobotlar hujjatlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlaridan foydalanildi. Metodologik yondashuv energiya resurslari, transport yo'laklari va geosiyosiy jarayonlarni o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi.

Mazkur yondashuv doirasida Yaqin Sharq geoenergetik makonida mavjud energiya resurslarining joylashuvi, ularning global energiya bozoridagi o'rni hamda transport yo'laklarining strategik muhimligi tahlil qilindi. Xususan, tabiiy gaz va neft resurslarining mintaqaviy taqsimoti, ularni xalqaro energiya bozoriga yetkazib beruvchi asosiy quvur liniyalari va dengiz transport yo'llarining geosiyosiy ahamiyati o'rganildi. Tadqiqot davomida ushbu resurslar ustidan nazorat o'rnatish uchun olib borilayotgan geosiyosiy raqobat, davlatlar o'rtasidagi energetik hamkorlik va

energetik xavfsizlik masalalari ham tahlil qilindi. Shu bilan birga, global energiya ta'minotida Yaqin Sharq mintaqasining tutgan o'ri hamda transport yo'laklarining xalqaro siyosiy jarayonlarga ta'siri baholandi.

Bundan tashqari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlar geoenergetika sohasidagi jarayonlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi. Turli manbalardan olingan informatsiyalarning qiyosiy tahlili orqali energiya resurslari va transport yo'laklarining geosiyosiy ahamiyatiga xolis baho berilib, mintaqada kuzatilayotgan asosiy tendensiyalar aniqlandi. Bu esa energiya resurslari taqsimoti va ularni tashish yo'llarining global siyosiy va iqtisodiy jarayonlardagi o'rnini chuqurroq tushunishga xizmat qildi. Shuningdek, hujjatlarni o'rganish va kontent-tahlil metodlaridan foydalanish orqali xalqaro energetika loyihalari hamda mintaqaviy hamkorlik dasturlarining mazmuni tahlil qilindi.

Statistik va tahliliy ma'lumotlardan foydalanish neft va tabiiy gaz zaxiralari, ishlab chiqarish hajmi, eksport ko'rsatkichlari va transport infratuzilmasining rivojlanish darajasini miqdoriy jihatdan baholash imkonini berdi. Ushbu ma'lumotlar asosida Yaqin Sharq mintaqasining global energiya tizimidagi o'ri hamda transport yo'laklarining ahamiyati yoritildi. Tadqiqotda foydalanilgan metodologiya energiya resurslari va transport yo'laklarining geosiyosiy ahamiyatini aniqlash hamda mintaqadagi energetik xavfsizlik masalalarini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi. Metodologik yondashuvning kompleksligi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashda asos bo'lib xizmat qildi.

Tahlil va muhokama

Energiya resurslari va ular bilan bog'liq siyosiy jarayonlarni o'rganishda geoenergetika tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Geoenergetika energiya resurslari, ularning geografik joylashuvi, shuningdek, transport yo'laklarining davlatlar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlarga ta'sirini o'rganadigan yo'nalish hisoblanadi. Ushbu tushuncha Geosiyosat bilan bevosita bog'liq bo'lib, energiya resurslari ustidan nazorat global kuch muvozanatini shakllantiruvchi eng muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Shuningdek, hayot mavjudligini energiyadan ajratib bo'lmaydi. Har qanday hayot shakli turli ko'rinishdagi energiyani ishlab chiqaradigan va iste'mol qiladigan uzluksiz o'zgarishlar orqali rivojlanadi. Dastlab xom neft — “qora oltin”ni, keyinchalik esa tabiiy gazni izlash ko'plab yirik tarixiy hodisalarga, jumladan, gumanitar inqirozlar, hududiy nizolar, ittifoqlar va urushlarga sabab bo'ldi. Energiya xavfsizligini ta'minlaydigan va ekologik toza energiya manbalariga o'tish, ehtimol, insoniyatning xavfsiz rivojlanishi uchun yagona yo'ldir. Energiyani iqtisodiy, xavfsiz va qayta tiklanuvchi usullarda ishlab chiqarish yangi ekologik muammo hisoblanadi. Boshqacha

aytganda, insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun kelgusi yilliklarda energiyani boshqarish va undan foydalanish diqqat markazida bo‘ladi.

Energiya resurslarining tarixiy transformatsiya jarayonlari

Insoniyat tarixida energiya manbalaridan foydalanish jarayoni bir necha bosqichli va chuqur o‘zgarishlar bilan kechgan bo‘lib, bu o‘zgarishlar jamiyatlarning iqtisodiy, siyosiy va texnologik rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan. XIX asr boshlariga qadar dunyo aholisi asosan an‘anaviy energiya manbalariga yog‘och, shamol va suvga tayanib yashagan. Bu davrda energiya iste‘moli past bo‘lgan, ishlab chiqarish ko‘lami kichik, iqtisodiyot esa asosan agrar xarakterga ega edi. 1800-yillarda tijorat energetikasining atigi 10 foizi ko‘mirdan olinardi. Biroq bir necha o‘n yillar ichida ko‘mir qazib olish sanoatida ulkan o‘shish yuz berdi.

XIX asr o‘rtalaridan boshlab sanoat inqilobi natijasida ko‘mirning ahamiyati keskin oshdi. Bug‘dvigatellari, temir yo‘llar, metallurgiya va yirik fabrikalar ko‘mirga asoslandi. Ko‘mir energiyasi ishlab chiqarishni keskin kengaytirishga, transport tizimini rivojlantirishga va global savdoning kuchayishiga olib keldi. Shu bilan birga, ko‘mir mustamlakachilik siyosatini ham kuchaytirdi, chunki sanoatlashgan davlatlar xom ashyo va bozorlar izlab yangi hududlarni egallashga intildilar. Qayd etish joizki, XIX asr davomida ko‘mir kapitalistik dunyo-iqtisodiyotini kengaytirish jarayonini amalga oshirishga yordam bergan, bu esa butun dunyodagi jamiyatlarni tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lgan.

Ammo, bu zamonaviy davrning birinchi global energetika o‘zgarishiga nima sabab bo‘lgan? Va nega Osiyo jamiyatlarida ushbu resursni ishlatish tajribasi ko‘proq bo‘lishiga qaramay ko‘mir tizimi aynan G‘arbiy Yevropada markazlashgan edi?

Yevropada siyosiy va tijoriy raqobatning o‘ziga xos dinamikasi yuzaga kelgan bo‘lib, bu ko‘mirni keng miqyosda ishlatishdagi texnologik to‘siqlarni yengib o‘tishga imkon yaratgan. Shuningdek, yangi kapitalistik tizim orqali yuzaga kelgan moliyaviy institutlar va ijtimoiy munosabatlardagi o‘zgarishlar Yevropa va Shimoliy Amerikada katta hajmli ko‘mir sanoatining rivojlanishiga yordam bergan. Keyin esa Britaniya gegemoniyasi tomonidan joriy qilingan tartib dunyo bo‘ylab ko‘mir qazib olishni kengaytirishga xizmat qilgan. Bunga sabab sifatida rivojlangan moliyaviy tizim, texnologik innovatsiyalar va kuchli siyosiy raqobat keltiriladi. Ushbu jamiyat dinamikalarining o‘zaro ta‘siri natijasida, ko‘mir atigi 60 yil ichida dunyoning eng muhim energiya tizimiga aylangan.

XX asr boshlariga kelib esa yangi energiya manbasi “neft” sahnaga chiqdi. Dastlab neftning roli kichik bo‘lgan, ammo ichki yonuv dvigatellari (avtomobillar, samolyotlar) paydo bo‘lishi bilan uning ahamiyati tez o‘tdi. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari davrida neft strategik resursga

aylandi, chunki harbiy texnika aynan shu yoqilg'iga bog'liq edi. 1920–1970-yillar oralig'ida neft global energiya tizimining markaziga aylandi. Bu davrda AQSh, keyinchalik Yaqin Sharq davlatlari asosiy neft ishlab chiqaruvchilarga aylandi. Neftning keng qo'llanilishi avtomobil sanoati, aviatsiya va kimyo sanoatining rivojlanishiga olib keldi. 1870–1880-yillarda neft Britaniyada energiya yetkazib berishda deyarli rol o'ynamagan bo'lsa ham, XX asr boshiga kelib hukumat va xususiy sektor neftga asoslangan tizimga o'tishni boshlab bergan. Shu o'tish jarayoni ko'mir sohasi atrofidagi ijtimoiy va ekologik ziddiyatlar tufayli ham tezlashtirilgan. Natijada, Birinchi jahon urushi oxiriga kelib neft Britaniyada eng tez o'sayotgan energiya manbaiga aylangan va global bozorga yangi energiya resursi sifatida kirib kelgan edi.

Neftga o'tish jarayoni AQShdan boshlab keyinchalik Fransiya, Rossiya, Yaponiya va Avstraliyagacha bo'lgan ko'plab mamlakatlarda takrorlandi. Bir necha o'n yillar ichida zamonaviy dunyoning birinchi global energetika o'zgarishi sababli neftga bo'lgan talabning oshishi keng yoyila boshladi. Hatto Jahon urushi, Buyuk depressiya va Ikkinchi jahon urushlari kabi tartibsizliklar bo'lishiga qaramay, neft bilan bog'liq texnologiyalar va infratuzilmalarga sarmoyalar uzluksiz davom etdi. Jumladan: katta kemalar, yuk mashinalari, avtomobillar va samolyotlar yaratilgan va butun geografik hududlar neftga asoslangan yangi tizimga qo'shildi.

Shu bilan birga, XX asrda "tabiiy gaz" ham muhim energiya manbaiga aylandi. Dastlab neft qazib olishning yon mahsuloti sifatida qaralgan gaz keyinchalik alohida energiya resursi sifatida rivojlandi. U elektr energiyasi ishlab chiqarishda, isitishda va sanoatda keng qo'llanila boshlandi. Gazning afzalligi shundaki, u ko'mir va neftga qaraganda nisbatan toza yonadi va kamroq zararli chiqindilar chiqaradi.

XX asr o'rtalarida yana bir muhim yo'nalish - "yadro" energetikasi paydo bo'ldi. Atom energiyasi juda katta hajmda energiya ishlab chiqarish imkonini berdi. Ayrim davlatlar (AQSh, Fransiya, Rossiya, Yaponiya) yadro elektr stansiyalarini faol rivojlantirdi. Biroq yadro energetikasi bilan bog'liq xavflar (avariyalar, radioaktiv chiqindilar) uning keng tarqalishini cheklab qo'ydi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib, dunyo yana yangi energetik bosqichga o'tmoqda. Iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar va fossil yoqilg'ilarning cheklanganligi sababli qayta tiklanadigan energiya manbalariga e'tibor kuchaydi. Quyosh energiyasi, shamol energiyasi va gidroenergetika tobora keng qo'llanilmoqda. So'nggi yillarda quyosh panellari va shamol turbinalari narxining arzonlashuvi ularning tez tarqalishiga olib keldi. Masalan, ko'plab davlatlarda elektr energiyasining sezilarli qismi aynan qayta tiklanadigan manbalardan olinmoqda.

Bugungi global energiya tizimi murakkab va ko'p qatlamli bo'lib, unda ko'mir, neft, gaz, yadro va qayta tiklanadigan energiya manbalari birgalikda ishlatilmoqda. Biroq umumiy tendensiya shuni ko'rsatadiki, dunyo asta-sekin fossil yoqilg'ilardan voz kechib, yanada barqaror va ekologik toza energiya tizimiga o'tishga harakat qilmoqda. Shu jarayonda davlat siyosati, texnologik innovatsiyalar, investitsiyalar va xalqaro hamkorlik hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, energiya tizimlari qisqa vaqt ichida tubdan o'zgarishi mumkin. XIX asrda ko'mir, XX asrda neft hukmron bo'lgan bo'lsa, XXI asrda qayta tiklanadigan energiya manbalari yetakchi o'rinni egallashi ehtimoli katta. Bu esa insoniyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida yangi bosqichni boshlab beradi.

Yaqin sharq mamlakatlarining energetik salohiyati

Yaqin Sharq dunyodagi eng yirik energiya resurslari zaxiralariga ega hududlardan biri hisoblanadi. Global neft zaxiralarining katta qismi aynan shu mintaqada joylashgan. Shu sababli Yaqin Sharq jahon energetika tizimining markaziy hududi sifatida qaraladi. Hududdagi eng yirik neft ishlab chiqaruvchi davlatlardan biri Saudiya Arabistoni hisoblanadi. Ushbu davlat jahon neft bozorida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek Eron va Iroq ham katta neft va gaz zaxiralariga ega hisoblanadi.

Tabiiy gaz resurslari bo'yicha esa Qatar dunyoning yetakchi eksportchilaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga Birlashgan Arab Amirliklari ham mintaqaning muhim energetika markazlaridan biri hisoblanadi. Mazkur davlatlar global energiya bozorida muhim rol o'ynashi sababli Yaqin Sharq mintaqasi geosiyosiy jihatdan ham strategik ahamiyat kasb etadi.

“Energy Institute Statistical Review of World Energy”ning so'nggi ma'lumotlariga ko'ra xom neftning xalqaro savdosi 2,2 milliard tonnaga yetdi, bu 2023 yilga nisbatan 1% ga o'sishni tashkil qiladi. Yaqin Sharq hali ham eng katta eksportyor bo'lib, global eksportning 40% ini tashkil qiladi. Saudiya Arabistoni eng yirik yakka eksportyor sifatida qolmoqda, Rossiya Federatsiyasi esa ikkinchi o'rinda bo'lib, 2023 yildagi kabi global xom neft eksportining 11% ini saqlab qolmoqda. Kanada esa 2024 yilda eksportini 4% ga oshirdi va dunyoning uchinchi eng yirik eksportyoriga aylandi.

Xom neft importiga keladigan bo'lsak, Xitoy 2024 yilda ham eng yirik importyor bo'lib, 0,6 milliard tonna, ya'ni global savdoning 26% ini tashkil etdi. Yevropa import bo'yicha ikkinchi o'rinda bo'lib, global savdoning 22% ini egalladi, undan keyin AQSh 15% bilan uchinchi o'rinda turdi. 2024 yilda Yevropa va AQSh xom neft importini kamaytirdi.

Xom neftga nisbatan ishlab chiqarilgan neft mahsulotlarining xalqaro savdosi 1,3 milliard tonnaga yetib, bu tonna bo'yicha xom neft savdosining taxminan 58% ini tashkil qiladi va 2023

yil darajalariga yaqin bo'ldi. Yaqin Sharq va AQSh ushbu eksportning asosiy qismini tashkil qilib, umumiy eksportning 46% ini egalladi, ya'ni, mos ravishda 0,29 va 0,28 milliard tonna.

Osiyo va Tinch okeani mintaqasi xom neft importining 43% ini tashkil qildi, bunda Xitoy mintaqasi importining 20% ini egalladi. Yevropa esa ishlov berilgan neft mahsulotlari bo'yicha ikkinchi eng yirik importyor bo'lib, 0,22 milliard tonna import qildi, bu 2023 yilga nisbatan 13% o'sishni anglatadi.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra global tabiiy gaz ishlab chiqarish 1,2% ga oshib, 4,124 milliard kub metr ga yetdi. Eng yirik to'rt ishlab chiqaruvchi mamlakatlar AQSh, Rossiya, Eron va Xitoy bo'lib, ular global ishlab chiqarishning 53% ini tashkil etmoqda.

Shuningdek, global suyiltirilgan tabiiy gaz savdosi barqaror qolmoqda, AQSh esa eng yirik eksportyor sifatida qolib, eksport hajmini 115 milliard kub metr ga yetkazdi. Statistikalarga ko'ra eksport borasida Qatar va Avstraliya keying eng yirik eksportyor davlatlar bo'lib qolmoqda. Ushbu uch mamlakat global suyiltirilgan tabiiy gaz eksportining 60% ini tashkil etmoqda.

Qisqa qilib aytganda, so'nggi yillarda global energiya bozori barqaror o'sishni saqlab qolgan bo'lsa-da, unda Yaqin Sharq hal qiluvchi rol o'ynashda davom etmoqda. Mintaqa xom neft eksportining qariyb 40% ini ta'minlab, dunyodagi eng muhim yetkazib beruvchi makon bo'lib qolmoqda. Shuningdek, Yaqin Sharq nafaqat xom neft, balki qayta ishlangan nefthamda gaz mahsulotlari eksportida ham asosiy markazlardan biri bo'lib, global ta'minotda katta ulushga ega. Bu esa mintaqaning global energiya xavfsizligidagi strategik ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Umuman olganda, energiya talabi tobora Osiyoga siljiyotgan bir vaqtda, Yaqin Sharq ushbu talabni qondiruvchi eng muhim va barqaror eksport markazi sifatida o'z pozitsiyasini saqlab qolmoqda.

Energiya transport yo'laklari va ularning strategik ahamiyati

Hormuz bo'g'ozini xalqaro navigatsiya va xalqaro iqtisodiyot uchun muhim suv yo'lidir, va ko'plab mamlakatlarning manfaatlari ushbu muhim mintaqaga bog'liq. Fors ko'rfazining yagona chiqish yo'li bo'lgan Hormuz bo'g'ozini ko'rfazining tor qismini tashkil etadi va uni Oman ko'rfazi bilan bog'laydi.

Hormuz bo'g'ozini Ko'rfaz davlatlari va Eron uchun dengiz yo'lasi sifatida muhim bo'lib, ushbu mamlakatlarni Hind okeani bilan bog'laydi, shuningdek, Ko'rfaz davlatlarining importi uchun asosiy kirish nuqtasi sifatidagi strategik ahamiyatga ega. Bu bo'g'oz dunyodagi eng katta neft zaxiralariga ega mamlakatlarning eksport yo'lasi bo'lib, neft ishlab chiqarish va uni Sharqiy Osiyo, Yevropa hamda Shimoliy Amerika bozorlariga yetkazish imkonini beradi. Hormuz bo'g'ozini nafaqat muhim savdo yo'lasi sifatida, balki o'z iqtisodiy resurslari bilan ham

iqtisodiyotga katta hissa qo'shadi. U ajoyib iqtisodiy, neft va moliyaviy salohiyatga ega bo'lib, iqtisodiy hayot ijtimoiy va siyosiy hayotning asosini tashkil qiladi. Ijtimoiy va siyosiy taraqqiyot iqtisodiy farovonliksiz tasavvur qilinmaydi.

Hormuz bo'g'ozini dunyodagi eng gavjum tranzit yo'laklaridan biri bo'lib, undan global neftning 40% dan ortig'i tranzit qilinadi. Ushbu hududda kuniga o'rtacha 200–300 tanker harakat qiladi. Uning xavfsizligi butun dunyo, xususan, ko'plab sanoatlashgan mamlakatlar uchun hayotiy ahamiyatga ega, chunki u ko'plab mamlakatlar uchun yagona dengiz yo'lagi hisoblanadi.

Ko'plab Ko'rfaz davlatlari neft eksportini Hormuz bo'g'ozini orqali amalga oshiradi. Shuningdek, konteyner savdosi orqali tayyor mahsulotlar, shuningdek, don, temir, sement va boshqa xomashyo va tovarlar ham tashiladi.

Amerikalik tadqiqotchi va tahlilchi Anthony Cordesmaning so'zlariga ko'ra Ko'rfaz davlatlari (Eron, Iroq, Qatar, Bahrayn, Kuvayt, Saudiya Arabistoni va BAA) global neft zaxiralari 57% ni tashkil etadi, Eronning o'zi jahon neft zaxiralarining 11% ga ega va tabiiy gaz zaxiralari 15,3% ni tashkil qiladi, Ko'rfaz davlatlaridagi tabiiy gaz zaxiralari esa jahon gazining 45% ini tashkil etadi.

Ushbu mintaqadagi yana bir muhim tranzit yo'lagi hisoblangan Suvaysh kanali 1869 yilda, o'sha paytda Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan Misr hududida joylashgan bo'lib, Qizil dengizni O'rta dengiz bilan bog'laydigan va Osiyo hamda Yevropa o'rtasidagi eng qisqa dengiz yo'lini ta'minlaydigan muhim strategik transport yo'lagi hisoblanadi. Uzunligi 193 km va kengligi 365 metr bo'lganligi sababli, u Yevropa va Osiyo qit'alarini samarali dengiz aloqasi orqali bog'laydi. Shu bilan birga, u Afrika qit'asi kesishish joyida joylashgan.

Bugungi kunda kanal Misr hukumati tarkibidagi Suvaysh Kanalining Ma'muriyati (SCA) tomonidan boshqariladi va butun dunyodagi kompaniyalar kanal hududidan foydalanish uchun to'lovlar to'laydi.

Ushbu kanal orqali yiliga o'n minglab kemalar harakatlanadi va u global savdoning taxminan 12–13 foizini o'z ichiga oladi. Shu sababli, Suvaysh kanali xalqaro savdo tizimining ajralmas qismi bo'lib, yuk tashish masofasini sezilarli darajada qisqartiradi, vaqt va xarajatlarni tejaydi. Masalan, Osiyodan Yevropaga boruvchi kemalar Afrika materigini aylanib o'tmasdan to'g'ridan-to'g'ri ushbu kanal orqali o'tadi, bu esa minglab kilometr masofani qisqartiradi.

Suvaysh kanali ayniqsa energetika resurslarini tashishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Neft va gaz kabi muhim xomashyo mahsulotlari aynan shu yo'l orqali Yaqin Sharqdan Yevropa va boshqa hududlarga yetkazib beriladi. Agar kanal faoliyati to'xtab qolsa yoki cheklansa, bu global energiya ta'minoti zanjiriga salbiy ta'sir ko'rsatadi, natijada neft va gaz narxlari oshishi mumkin.

Shu jihatdan, kanal nafaqat transport, balki energetika xavfsizligi nuqtai nazaridan ham strategik obyekt hisoblanadi.

Bundan tashqari, Suvaysh kanali geosiyosiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Kanal ustidan nazorat xalqaro siyosiy kuchlar uchun muhim strategik vosita hisoblanadi. Yirik davlatlar va xalqaro tashkilotlar kanalning ochiq va xavfsiz bo'lishidan manfaatdor, chunki ularning iqtisodiy barqarorligi ham bevosita ushbu transit yo'liga bog'liq.

Shu bilan birgalikda Geosiyosiy va harbiy xavflar ham muhim omil hisoblanadi. Suvays kanali joylashgan mintaqa ba'zan siyosiy beqarorlik, qurolli mojarolar yoki xalqaro ziddiyatlar ta'siriga tushib qolmoqda. Agar hududda keskinlik ortsa, bu kanal faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, hatto uning vaqtincha yopilishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, strategik ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, kanal harbiy nishon yoki bosim vositasi sifatida ham ko'rilishi ehtimoli mavjud.

Shuni ham aytish joizi, terrorchilik va kiberxavfsizlik bilan bog'liq tahdidlar ham bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda. Zamonaviy infratuzilma ko'p jihatdan raqamli tizimlarga tayanadi, bu esa kiberhujumlar xavfini oshiradi. Agar kanalni boshqaruvchi tizimlarga zarar yetkazilsa yoki ular izdan chiqarilsa, bu global savdo tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, terrorchilik harakatlari orqali kanal infratuzilmasiga bevosita zarar yetkazish ehtimoli ham mavjud.

Umuman olganda, Suvaysh kanali global savdo, energetika ta'minoti va geosiyosiy barqarorlikning muhim elementi hisoblanadi. Uning barqaror ishlashi nafaqat Misr, balki butun jahon iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, kanalni himoya qilish, modernizatsiya qilish va xavfsizligini ta'minlash xalqaro hamjamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Yana bir geosiyosiy, iqtisodiy va strategik jihatdan juda muhim bo'lgan tranzit yo'lagi Bob al-Mandab bo'g'ozini hisoblanib, Qizil dengizni Adan qo'ltig'i bilan bog'laydigan tor va nihoyatda muhim dengiz yo'lagi hisoblanadi. U geografik jihatdan Yaman, Jibuti va Eritreya davlatlari oralig'ida joylashgan bo'lib, Suvaysh kanaliga olib boruvchi asosiy dengiz yo'lining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababli, bu bo'g'oz global savdo va energetika tizimida muhim rol o'ynaydi.

Bob al-Mandab bo'g'ozining strategik ahamiyati, avvalo, uning xalqaro savdo yo'lidagi o'rnida namoyon bo'ladi. Osiyo va Yevropa o'rtasidagi dengiz transportining katta qismi shu yo'lak orqali o'tadi. Har kuni yuzlab yuk kemalari, jumladan konteyner tashuvchilar va neft

tankerlar ushbu bo'g'ozdan o'tib, Suvaysh kanali orqali Yevropaga yoki aksincha yo'nalishda harakatlanadi.

Energetika nuqtai nazaridan ham Bob al-Mandab juda muhim hisoblanadi. Yaqin Sharqdan Yevropa va boshqa hududlarga eksport qilinadigan neft va gazning katta qismi aynan shu yo'l orqali o'tadi. Shu bois, bu hududdagi har qanday beqarorlik global energiya bozorlariga tezda ta'sir ko'rsatadi. Narxlarning oshishi, yetkazib berishdagi uzilishlar va logistika muammolari aynan shu bo'g'ozdagi vaziyat bilan chambarchas bog'liq.

Geosiyosiy jihatdan Bob al-Mandab strategik nazorat nuqtasi hisoblanadi. U Yaqin Sharq va Afrika chorrahasida joylashgani sababli, bu hududda turli davlatlar va xalqaro kuchlarning manfaatlari to'qnashadi. Shu sababdan ham bu yerda harbiy bazalar va dengiz kuchlarining mavjudligi bejiz emas, chunki kim ushbu bo'g'ozni nazorat qilsa, muhim savdo yo'liga ta'sir o'tkaza oladi.

Mavjud xavflar birinchi navbatda harbiy va siyosiy beqarorlik bilan bog'liq. Ayniqsa, Yaman hududidagi mojaro va u yerda faoliyat yuritayotgan Ansorulloh harakati (Hutiylar) ushbu bo'g'oz orqali o'tuvchi kemalarga tahdid solmoqda. Ular tomonidan amalga oshirilgan raketa va dron hujumlari, dengiz minalari va boshqa harbiy harakatlar xalqaro savdo xavfsizligiga jiddiy xavf tug'diradi.

Shuningdek, terrorchilik va dengiz qaroqchiligi xavfi ham mavjud. Ayniqsa, Somali yaqinidagi hududlarda ilgari keng tarqalgan piratlik faoliyati hali ham to'liq yo'qolmagan. Bu esa kemalar uchun qo'shimcha xavf va sug'urta xarajatlarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Hormuz bo'g'ozi, Suvaysh kanali va Bob al-Mandab bo'g'ozi global savdo va energetika tizimining o'zaro bog'liq uchta eng muhim "bo'g'in"lari hisoblanadi. Ushbu dengiz yo'laklari orqali dunyo neftining katta qismi va xalqaro savdo yuklari tashiladi, shu sababli ularning barqaror ishlashi jahon iqtisodiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular Osiyo, Yevropa va boshqa mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni ta'minlab, transport xarajatlarini kamaytiradi va ta'minot zanjirining uzluksizligini kafolatlaydi.

Biroq, ushbu strategik hududlar geosiyosiy keskinliklar, harbiy mojarolar va terrorchilik tahdidlari kabi turli xavf-xatarlarga ham duch kelmoqda. Ayniqsa, mintaqaviy beqarorlik va qurolli guruhlar faoliyati dengiz xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi va global savdo oqimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, mazkur bo'g'oz va kanallarning xavfsizligi nafaqat mintaqaviy davlatlar, balki butun xalqaro hamjamiyat uchun ustuvor masala hisoblanadi. Ularning barqaror faoliyatini

ta'minlash global iqtisodiy barqarorlik, energetika xavfsizligi va xalqaro savdo tizimining uzluksiz ishlashi uchun juda dolzarbdir.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, global energetika tizimi tarixan uzluksiz transformatsiya jarayonida bo'lib, bu jarayonlar iqtisodiy rivojlanish, siyosiy kuchlar muvozanati va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liqdir. XIX asrda ko'mir, XX asrda neft va gaz asosiy energiya manbalariga aylangan bo'lsa, XXI asrda energiya tizimi yanada murakkablashib, ko'p manbali va diversifikatsiyalashgan modelga o'tmoqda. Bu jarayonda energiya resurslari ustidan nazorat nafaqat iqtisodiy ustunlik, balki geosiyosiy ta'sir vositasi sifatida ham muhim rol o'ynamoqda.

Ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasi global energetika tizimining yuragi bo'lib qolmoqda. Mintaqadagi ulkan neft va gaz zaxiralari uni xalqaro siyosat va iqtisodiyot markaziga aylantirmoqda. Shu bilan birga, energiya resurslarining mavjudligi bu hududni doimiy geosiyosiy raqobat va ziddiyatlar maydoniga ham aylantirib kelmoqda. Energiya ishlab chiqarish bilan bir qatorda, uni tashish infratuzilmasi xususan, Hormuz bo'g'ozini, Suvaysh kanali va Bob al-Mandab bo'g'ozini kabi strategik "bo'g'inlar" global iqtisodiy tizimning uzluksiz ishlashini ta'minlaydigan asosiy elementlarga aylandi.

Shu bilan birga, mavjud xavflar ko'lami tobora kengayib bormoqda. An'anaviy harbiy va siyosiy xavflarga qo'shimcha ravishda, zamonaviy tahdidlar kibernetika xavfsizlik, terrorchilik, dron texnologiyalari, iqlim o'zgarishi va logistika tizimlarining ortib borayotgan murakkabligi ushbu strategik hududlar xavfsizligini yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ayniqsa, mintaqaviy mojarolar ushbu yo'laklar orqali o'tuvchi global savdo oqimlariga to'g'ridan-to'g'ri tahdid solmoqda. Mojarolar keskinlashuvi ortidan esa neft va gaz kabi energiya resurslari narxlarining keskin qimmatlashuviga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Shu bilan bir qatorda prognozlashtirish jarayonlarida bir nechta muhim tendensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, global energiya talabi, ayniqsa Yevropa va Osiyo davlatlarida, o'sishda davom etadi va bu Yaqin Sharq eksportiga bo'lgan bog'liqlikni saqlab qoladi. Ikkinchidan, qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushi ortib borayotgan bo'lsa-da, yaqin o'n yilliklarda neft va gaz global energetika balansida muhim o'rin tutishda davom etadi. Bu esa strategik bo'g'oz va kanallarning ahamiyati saqlanib qolishini anglatadi.

Uchinchidan, global savdo yo'nalishlarining diversifikatsiyasi (masalan, yangi quruqlik transport koridorlari yoki quvrlar orqali loyihalar) ayrim alternativ imkoniyatlarni yaratishi mumkin, biroq ular qisqa muddatda yuqorida tilga olingan dengiz yo'laklarining o'rnini to'liq bosa olmaydi. To'rtinchidan, texnologik rivojlanish xususan, raqamlashtirish va avtomatlashtirish

samaradorlikni oshirishi bilan birga, yangi turdagi kiberxavsizlik sohasidagi xavflarni ham yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda bo'layotgan o'zaro keskinliklar, qurolli mojarolar, sanoatning turli sohalarining kengayishi, texnologik rivojlanishlar va bularning ortidan energiya resurslariga talablarning ortib borayotganligini hamda "Ommaviy isish" (Global Warming) jarayonlari va uning ekologiyaga jiddiy xavf yug'dirayotganligini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, hozirgi davrda jahon hamjamiyati energetika sohasida yana bir global transformatsiya yoqasiga tobora yaqinlashib kelmoqda. Ushbu o'tish jarayoni qisqa muddatli energatika va iqtisodiy inqirozlarga sabab bo'lishi ehtimoldan holi emas. Bularning oldini olish maqsadida neft va gaz kabi resurslarga qaramlikni qisqartirgan holda muqobil qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanishga bosqinchma bosqich qadam qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi va bu orqali global iqtisodiy inqirozlarni ham oldini olish mumkin.

Umuman olganda, global energetika va savdo tizimi tobora o'zaro bog'liq va murakkab tus olmoqda. Shu sababli, strategik dengiz yo'laklarining xavfsizligi endilikda faqat mintaqaviy emas, balki global darajadagi masalaga aylanmoqda. Kelajakda ushbu infratuzilmalarni himoya qilish, ularni modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish jahon iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azhar, A. H. (2016). Strait of Hormuz: The need to ensure freedom of navigation and its impact on the countries of the Arabian Gulf,.
2. Bocharov, Y. B. (2024). Development of energy transport corridors in the Middle East as the basis of regional conflicts. *Journal of Energy and Geopolitics*, 12(3), 45–62.
3. Esmael, A. S. (2020). The Strategic Importance of the Strait of Hormuz and Its Impact on the Iranian American Conflict. *International Journal of Innovation, Creativity and Change*, 12(1).
4. Geopolitics of global trade routes. (2022). Brookings Institution.
5. Global trade routes and strategic waterways. (2021). Chatham House.
6. Institute., E. (2025). *Statistical Review of World Energy 2025* (74th ed.).
7. Lutmar, C. &. (2023). *The Suez Canal: past lessons and future challenges*. Springer Nature.
8. Nelson, V. (2011). *Introduction to Renewable Energy*. Boca Raton, FL.: CRC Press,.
9. Podobnik, B. (2006). *Global Energy Shifts: Fostering Sustainability in a Turbulent Age*. New Delhi: The Energy and Resources Institute (TERI).

10. Ramadhani, R. &. (2024). Maritime stability in the Strait of Hormuz: Challenges, global impacts, and multilateral diplomacy. *HYPOTHESIS: Multidisciplinary Journal of Social Sciences*, 3(02), 81–96.
11. World energy outlook 2023. (2023). International Energy Agency (IEA).